

TDIU Samarqand filiali Xotin-qizlar maslahat kengashining 2025 -yil fevral oyi uchun bajarilgan ishlar hisoboti

Joriy yilning 4-fevral kuni O.Pardayeva rahbarligidagi "Lider Qizlar" klubi tomonidan "Resin Art" qo'l mehnati san'ati bo'yicha bepul mashg'ulot tashkil etildi. Bu o'ziga xos tadbir san'at va ijodga qiziqadigan qizlar uchun ajoyib imkoniyat yaratdi! Mashg'ulotni Resin Art sohasida tajribaga ega mutaxassis D.Xudoyberdiyeva olib bordi. U qatnashchilarga resin art san'ati haqida chuqur tushunchalar berib, rang-barang materiallar yordamida ijod qilishni o'rgatdi. "Lider Qizlar" klubi a'zolari hamda bir qator talaba qizlar ushbu san'atga qiziqish bildirib, faol ishtirok etdilar.



TDIU Samarqand filialida har juma kuni "Milliy libos barchaga yarashadi" shiori ostida milliy liboslarda ish faoliyatini boshlash haqidagi ma'lumotingiz milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ'ib qilishda muhim tashabbusi bo'lib o'tmoqda. Bu kabi tadbirlar nafaqat milliy merosimizni keng targ'ib qilishga, balki turizmni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.



2025 yil 12 fevral "Lider qizlar" klubi a'zolari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "Ishga marhamat" monomarkaziga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif, a'zolarga kasbiy rivojlanish, yangi bilimlar olish va ish bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam berishga qaratilgan edi. ✓ □

"Ishga marhamat" monomarkazi bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining Iqtisodiyot fakulteti xotin-qizlar ishi bo'yicha dekan maslahatchisi, dotsent Ozoda Pardayeva tomonidan imzolangan memorandum asosida tashkil etildi. Ushbu memorandum, filial va monomarkaz o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xotin-qizlarga kasb-hunar sohasi bo'yicha qo'llab-quvvatlash va imkoniyatlar yaratish maqsadida amalga oshirilgan.



2025 yil joriy yilning 14-fevral kuni TDIU Samarqand filialida xodimlar va talabalar ishtirokida “Milliy liboslar ko‘rgazmasi” tashkil etildi. Tadbir yoshlarimizni milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni ruhida tarbiyalash maqsadida o‘tkazildi.



2025 yil 18 fevral Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabalar turar joyida “Biser va munchoqlar bilan ishlash” bo‘yicha master-klass o‘tkazildi. Master-klassda ORI-122 guruh talabasi Asadova Durdona o‘z tajribalarini qizlar bilan bo‘lishdi. Shu bilan birgalikda “Mohir qo‘llar” to‘garagi doirasida talaba qizlar bichish-tikish ishlari bilan shug‘ullanishdi. Ushbu jarayon talaba qizlar uchun foydali o‘tdi.



2025-yil 20-fevral kuni "Ekologiya va salomatlik" ayollar klubining navbatdagi trening kursi bo‘lib o‘tdi. Trening kursida filial ayol o‘qituvchilari hamda talaba qizlari faol qatnashishdi. Klub raisi dotsent E.I.Xamdamova va klub raisi o‘rinbosari katta o‘qituvchi (PhD) E.Z.Isaqova ekologik ta’limning inson salomatligiga bo‘lgan ta’sirini ta’riflash, ekologik ta’limning barqaror rivojlanish va jamoat salomatligini ta’minlashdagi

rolini tushuntirish, atrof-muhit bilan bog‘liq eko-savodxonlikni oshirish bo‘yicha ma’ruza qildi. So‘ng assistent R.Haydarova trening kursi qatnashuvchilariga “To‘g‘ri ovqatlanish - salomatlik garovi” mavzusida ma’ruza qildi. Trening kursi tinglovchilari ma’ruza yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.



TDIU Samarqand filiali Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashining belgilangan grafik asosida ijarada istiqomat qilayotgan talaba-qizlarning yashash sharoitlari o'rganildi.-

TDIU Samarqand filiali 2025-yil 27-fevral kuni Iqtisodiyot fakulteti dekan maslahatchisi O.Pardayeva va Xotin-qizlar psixologi N.Ataboyevalar tomonidan ijarada istiqomat qilayotgan talaba-qizlarning yashash sharoitlari o'rganildi.



28 fevral "Miss Universitet" ko'rik-tanloviga tayyorgarlik jarayoni qizg'in bo'lib o'tdi.



**TDIU SF Xotin-qizlar masalalari bo'yicha
direktor maslahatchisi:**

E.Z.Isaqova